**Loyiha-smeta hujjatlarini**
**tayyorlash haqida pudrat shartnomasi**

**204-1-21-MT/2022-son**

2«11»2022 yil.

Kelgusi o'rinlarda «**Buyurtmachi**» deb yuritiladigan va **harakatdagi Nizom** asosida faoliyat ko'rsatadigan **Jalaquduq tuman maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri M.Ismoilova** bir tomondan, hamda kelgusi o'rinlarda «**Pudratchi**» deb yuritiladi va xarakatdagi **Nizom** asosida faoliyat ko'rsatadigan **"NORMA QURILISH KONSALTING" ma'sulyati cheklangan jamiyati** va **uning ijrochi direktori Q.Sharopov** ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

**1. Shartnomaning mazmuni**

1.1 **"Pudratchi" Jalaquduq tuman Toshxovuz MFY xududidagi 13-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini joriy ta'mirlash ishlariga loyixa smeta xujjatlarini ko'rsatilgan muddatda bajarish** majburiyatini, **"Buyurtmachi"** esa o'z vaqtida ishlarni qabul qilib olib, ishlar xaqqini to'lab berish majburiyatini oladi.

1.2 **"Pudratchi"**, **"Buyurtmachi"** tomonidan taqdim etilgan me'moriy rejalashtirish (APZ), "loyixalash topshiriqlarida ko'rsatib o'tilgan ishlarni joriy ta'mirlash qurilishi bo'yicha loyiha –smeta hujjatlarining tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash» haqidagi SHNK 1.03 01-03 qoida va qo'llanmalari va mazkur shartnomaning hujjatlariga asoslanib bajaradi va tugallaydi.

1.3 Bajariladigan ishlarga ilmiy, texnik, iktisodiy va boshka talablar ishlarini bajarish uchun texnik topshiriqlarda nazarda tutiladi.

1.4 **"Pudratchi"**, tomonidan bajariladigon ishlarning muddati 15 (o'n besh) kun ish kuni bilan belgilangan.

1.5 Xo'jalik shartnomasining bajarishdan bosh tortish va shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

1.6 Ishlarni moliyalashtirish xisobot yili uchun belgilangan tartibda tasdiqlangan manziliy dasturda belgilangan limit mablag'lari doirasida va ko'rsatilgan moliyalashtirish manbai hisobidan amalga oshiriladi.

**2. Tomonlarning majburiyatlari**

2.1 **"Pudratchi"ning majburiyatlari:**

- **"Pudratchi", "Buyurtmachi"** tomonidan berilgan texnik topshiriq va boshqa boshlang'ich hujjatlar asosida ishlarni bajarish,belgilangan tartibda mualliflik nazoratini olib borish , pudratchi tomonidan olib borilayotgan qurilish montaj ishlari loyixa-smeta xujjatlari asosida bajarilayotganini tekshirish va chiqayotgan muammolarni qisqa muddatda xal qilish
- **"Buyurtmachi"** bilan bajariladigan ishlarni (bosqichlari) ning natijalarini kelishish;

- Mazkur shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlarning borishi haqida, talab qilingan xollarda **"Buyurtmachi"**ga axborot jo'natish

2.2 **"Pudratchi"** mazkur shartnoma asosida bajarilgan ishlarni buyurtmachining ruxsatisiz uchunchi shaxsga berishga xaqli emas.

2.3 **"Buyurtmachi"ning majburiyati:**

- Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan miqdorda va shartlarda belgilangan narxni to'lash;
- **"Pudratchi"** tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni, mazkur shartnomada nazarda tutilgan shartlarda bajarilishini nazorat qilish;
- **"Pudratchi"** bilan bajarilgan ishlar (bosqichlar) ning natijalarini kelishish;
- Shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni, ularning mazmunini **"Pudratchi"**ning roziligisiz uchinchi shaxsga bermaslik;

## 3. Shartnoma bo'yicha ishlarning narxi

3.1 Bajariladigan ishlarning umumiy qiymati loyixa ishlari **2022 yil** uchun **10 000 00 (o'n million ) so'm** ajratilgan bulib,

- bundan **"Buyurtmachi"** tomonidan **"Pudratchi"**ga shartnoma qiymatining **30 foizlik** miqdorida amalga oshiriladigan bo'nak (avans) to'lovi **3 000 000 (uch million ) so'mni,** kolgan **70 foizlik** to'lovlar **7 000 000 (Etti million ) so'mni** tashkil qiladi.

3.2 **"Buyurtmachi"** **"Pudratchi"**dan bajarilgan ishlar haqidagi dalolatnomalarni qabul qilib, tomonlar imzo chekkanlaridan keyin joriy moliyalashtirish ishlarini bajarish majburiyatini oladi

3.3 Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan amalga oshiriladigan loyixa ishlari narxi va muddati uzil – kesil xisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

## 4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1 Bajarilgan ishlarni baholash va qabul qilib olish texnik topshiriq talablari asosida baholanadi.

4.2 **"Pudratchi"** tomonidan topshirilishi va rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yhati texnik topshiriqda aniqlanadi.

4.3 **"Pudratchi"** ishlarni bajarib bo'lgach, **"Buyurtmachi"**ga topshirish–kabul qilish dalolatnomasi bilan birgalikda ilova qilib 3 ta nusxada hujjatlar to'plamini taqdim etadi.

4.4 **"Buyurtmachi"** mazkur shartnomaning 4.2 bandida ko'rsatilgan topshirish–qabul qilish dalolatnomasini va hisobot hujjatlarini 30 kun muddatda qabul qilish majburiyatini oladi va pudratchiga imzolangan, yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish–qabul qilish dalolat-nomasini jo'natadi.

4.5 Bajarilgan ishlarni topshirish–qabul qilish davomida **"Buyurtmachi"**ning asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yhati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.6 Agar ishlarni bajarish jarayonida keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi ma'lum bo'lsa, tomonlar 5 ish kun mobaynida bir–birlarini

ishlar to'xtatilganligi haqida habardor qilishlari shart va 10 ish kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan yo'nalishlarini oydinlashtiruvchi masalalarni ko'rib chiqishlari kerak. Ishlar to'xtatilgan hollarda tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan majburiyatlar yuklanadi.

4.7 O'zaro hisob–kitoblar qilishning muddati kelganligi tomonlarning biri mazkur shartnomadagi ishlarni to'xtatish haqidagi yozma xabarnoma bergan sanadan hisoblanadi.

## 5 . Tomonlarning javobgarligi

5.1 **"Buyurtmachi"** o'z vaqtida oldindan to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlarni to'lamagan hollarda, ishlarni yakunlash muddati to'lov kechiktirilgan muddatga uzaytiriladi.

5.2 **"Buyurtmachi"** to'lov talabnomasi aksepti (qabul qilish)ni asossiz ravishda to'la yoki qisman rad etganligi, shuningdek xisob-kitoblarning boshqa shakllardagi ishlarga xaq to'lashdan bosh tortganligi (bank muasasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaslik, chek bermaslik, akkreditiv bermaslik va xakozo) uchun to'lovdan bosh tortgan yoki rad etgani uchun**"Pudratchi"ga** summaning 5% miqdorida jarima to'laydi.

5.3 **"Buyurtmachi"dan** olgan majburiyatini bajarmagan taqdirda **"Pudratchi"** o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajariladigan ishlarni qiymatidan 0,4 % xajmida penya to'laydi. Ammo bunda penyaning umumiy miqdori bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizidan ortib ketmasligi kerak.

5.4 **"Pudratchi"** shartnomada kursatilgan majburiyatini bajarishda, xizmat ko'rsatishda olgan majburiyatlarini buzganligi uchun **"Buyurtmachi"**ga o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 % xajmida penya to'laydi. Ammo bunda penyaning umumiy miqdori bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 %dan ortib ketmasligi kerak.

5.5 Bajarilgan ishlar(bosqichlar)da kamchilik va nuqsonlar paydo bo'lganda **"Pudratchi"** ularni beg'araz bartaraf etish majburiyatini oladi.

5.6.Agar **"Pudratchi"** o'tgan bosqich uchun hisob bermasa, keyingi bosqich uchun moliyalashtirish ishlari bajarilmaydi.

5.7 Agar shartnoma shartlarining buzilishi yengib bo'lmaydigan xolatlar (fors–major) natijasida yuzaga kelsa tomonlar o'z harakatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik me'yorlari asosida ish ko'radi.

5.8 Agar **Pudratchi** loyixada ko'rsatgan shartlari noto'g'ri bo'lib chiqsa ko'rilgan xarajatlarni 100% to'laydi va obyektda bajarilishi kerak bo'lgan shartlar qoldirilsa javobgarligi yuklatiladi.

5.9 Shartnomani ijro etmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi uchun, javobgarlik agar shartnomada o'zgacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy–huquqiy bazasi to'grisida» gi qonunning 25–32–moddalariga asosan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

6.0 Agar bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar shartnoma shartlariga mos kelmasligi, **"Buyurtmachi"** bajarilgan ishlardan bosh tortishga xaqli, **"Pudratchi"**dan shartnoma shartlariga mos kelmaydigan ish qiymatining 5% miqdorida jarima undirishga, agar bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga xaq to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summani qaytarishni talab qilishga xaqli. Jarima to'lov talabnomasi moliyalashtirish muassasasiga sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar xaqidagi dalolatnoma tuzilgan vaqtdan boshlab bir oy mobaynida taqdim qilinishi lozim. Jarima jadvalining to'lov talabnomasi belgilangan bir oylik muddatdan keyin taqdim etilsa, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6.1 Shartnoma shartlarini ijro etmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlik, agar shartnomada ko'zda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatini shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunning tegishli moddalariga asosan javobgarlik choralari ko'riladi.

## 6. Bartaraf etilib bo'lmaydigan kuch xolati (fors - major)

6.1 Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy hodisalar, harbiy harakatlar va boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, xamda bu holat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat, shuningdek shu vaziyat keltirib chikargan oqibat xukm surgan vaqtga mos ravishda orkaga suriladi.

6.2 Agar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortik vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, **"Pudratchi"** va **"Buyurtmachi"** qurilishni davom ettirish yoki noma'lum vaktga to'xtatish uchun chora tadbirlar ko'rishni muhokama qiladilar.

Agar tomonlar 1 oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning har qaysisi shartnomani bekor kilinishini talab kilishga xaklidir.

6.3 **"Buyurtmachi"** to'lov shartlarini o'z vaqtida bajarmasligi **"Pudratchi"** uchun «fors–major» holatiga teng hisoblanadi.

## 7. Qo'shimcha shartlar

7.1 **"Buyurtmachi"** 1.1.-bandda ko'rsatilgan ob'yektdan tashqari, **"Pudratchi"** tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ish natijalaridan foydalanishga haqli emas, **"Pudratchi"** esa olingan ish natijalaridan o'zining manfaatlari uchun foydalanishi taqiqlanadi.

7.2 Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan tomonlarning o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'grisida» gi qonuniga, xamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan belgilanadi.

7.3 Tomonlar o‘zlarining yuridik va bank rekvizitlari o‘zgargan taqdirda, bir-birlarini 3 bank kuni ichida xabardor qilishlari shart.

## 8. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari

8.1 Mazkur shartnoma tomonlar imzo chekib, gaznachilik boshkarmasidan ruyxatdan utganidan keyin kuchga kiradi va uning shartlari to‘liq bajarib bo‘lguncha haqiqiy hisoblanadi.

8.2 Mazkur shartnoma 2 nusxada tayyorlanadi va bir nusxadan buyurtmachiga, pudratchiga beriladi.

8.3 Shartnoma 2022 yil 31 dekabrga qadar o‘z kuchida bo‘ladi.

## 9. Nizolarni xal etish tartibi

9.1 Shartnomani tuzish, ijro etish, o‘zgartirish va bekor kilish, shuningdek keltirilgan zararni qoplash chog‘ida tomonlar o‘rtasida vujudga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda Andijon tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan yoki tomonlarning kelishuviga binoan xakamlar sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

## 10. Tomonlarning rekvizitlari

| BUYURTMACHI | PUDRATCHI |
|---|---|
| **Jalaquduq tumani maktabgacha ta'lim bo‘limi** | **«NORMA QURILISH KONSALTING» MCHJ** |
| **Jalaquduq tuman Tuyalas MFY** | Asaka t. Soxil bo‘yi 8A-uy |
| **Tel: 74 755-20-24** | Tel: (94) 566-57-99 |
| **STIR 305156434, MFO 00014** | X/r: 2020 8000 0008 9859 6001 |
| Sh/xv 401722860032117091100251005 | Bank nomi:Milliybank Asaka filiali |
| | INN: **305637531** MFO: 00893 |
| | |
| | Ijrochi direktor<br>Q.Sharopov |

| | Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.<br>Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. | |
|---|---|---|
| | Imzolovchi F.I.SH. | МУБОРАКХОН ИСМОИЛОВА РАХИМБЕРДИЕВНА |
| | Imzolangan sana | 02.11.2022 19:34 |
| | Hujjat kodi | **TP3115375664** |
| | Hulosa kodi | **XV7657565847** |

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

XV7657565847

**1.** Loyihaning turi : Shartnoma

**2.** Loyihaning nomi: **13-DMTT loyixa shartnoma**

**3.** Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: "JALAQUDUQ TUMAN MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI" DAVLAT MUASSASASI tomonidan 02.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Jalaquduq tumani yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

**B.A.AXMADJONOV**
02.11.2022

## Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 166040 на приобретение Жалакудук туманидаги 13-ДМТТ ни жорий таъмирлаш ишлари

Способ проведения электронный

Дата 26.10.2022

Время рассмотрения 26.10.2022 14:42

Закупочная комиссия Жалакудук тумани Мактабгача таълим булими.Маъмур, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | Mamasidikov Jaxongir Valievich | Бош хисобчи | Вода |
| **Секретарь комиссии** | SADIKOV AZIZBEK ADILJONOVICH | Эксплуататсия бошлиги | Вода |
| **Член комиссии** | KAYUMOVA ODINAXON DILMUROD QIZI | шартнома мутахасиси | МТБ |
| **Член комиссии** | ALIMOVA NARGIZA SHUKURJONOVNA | Материалной хисобчи | Вода |
| **Член комиссии** | XOSHIMOV XUSNIDIN KODIRJON O'G'LI | Ижро интизоми | Вода |
| **Член комиссии** | MIRZAKOMOLOV MIRZAABDULLA NOSIRULLAYEVICH | Инжинер | Вода |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 26.10.2022 года № лота 166040.
Метод оценки предложений – Метод наименьшей цены

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по разработке проектно-сметных работ** |
|---|---|
| Подробное описание | маълумот |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 16 500 000.00 |
| Стартовая сумма | 16 500 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Молиявий холати Корхонани охирги 3 йиллик баланс ва молиявий хисоботлари (Давлат солик инспекциясидан тасдикланган бўлиш керак).

Тип: Бинарное значение

Описание: Молиявий холати Корхонани охирги 3 йиллик баланс ва молиявий хисоботлари (Давлат солик инспекциясидан тасдикланган бўлиш керак).

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| DIZAYN SERVIS PROEKT MCHJ | 25 | 1 | 15 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| "BINOKOR LOYIHA" хусусий корхонаси | 25 | 1 | 20 | Экспертная | | |
| «NORMA QURILISH KONSALTING» МЧЖ | 25 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| EVRO INTEGRAL STROY MCHJ | 25 | 1 | 20 | Экспертная | | |

Критерий №2 Иш тажрибаси Ташкилотни охирги уч йил мобайнида бажарган ишлари хамда конкурс объектига ўхшаш объеклада бажарган ишлари тўғрисида маълумот

Тип: Бинарное значение

Описание: Иш тажрибаси Ташкилотни охирги уч йил мобайнида бажарган ишлари хамда конкурс объектига ўхшаш объеклада бажарган ишлари тўғрисида маълумот

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| DIZAYN SERVIS PROEKT MCHJ | 25 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| "BINOKOR LOYIHA" хусусий корхонаси | 25 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| «NORMA QURILISH KONSALTING» МЧЖ | 25 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| EVRO INTEGRAL STROY MCHJ | 25 | 1 | 20 | Экспертная | | |

Критерий №3 Қурилиш майдонини ўрганлиги тўғрисида маълумот

Тип: Бинарное значение

Описание: Қурилиш майдонини ўрганлиги тўғрисида маълумот

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| DIZAYN SERVIS PROEKT MCHJ | 25 | 1 | 20 | Экспертная | | |
| "BINOKOR LOYIHA" хусусий корхонаси | 25 | 1 | 20 | Экспертная | | |
| «NORMA QURILISH KONSALTING» МЧЖ | 25 | 1 | 20 | Экспертная | | |
| EVRO INTEGRAL STROY MCHJ | 25 | 1 | 25 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| "BINOKOR | 16 500 | 10 989 000.00 | 10 989 000.00 | 00.00 | 10 989 | 25.10.2022 | 91.00009 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| LOYIHA" хусусий корхонаси | 000.00 | UZS | | | 000.00 | 12:30:22 | |
| EVRO INTEGRAL STROY MCHJ | 16 500 000.00 | 15 800 000.00 UZS | 15 800 000.00 | 00.00 | 15 800 000.00 | 26.10.2022 11:54:05 | 63.29114 |
| «NORMA QURILISH KONSALTING» МЧЖ | 16 500 000.00 | 10 000 000.00 UZS | 10 000 000.00 | 00.00 | 10 000 000.00 | 26.10.2022 07:55:33 | 100 |
| DIZAYN SERVIS PROEKT MCHJ | 16 500 000.00 | 16 150 000.00 UZS | 16 150 000.00 | 00.00 | 16 150 000.00 | 20.10.2022 14:31:24 | 61.9195 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| "BINOKOR LOYIHA" хусусий корхонаси | Прошел | 91.00009 | 91.00009 |
| EVRO INTEGRAL STROY MCHJ | Прошел | 63.29114 | 63.29114 |
| «NORMA QURILISH KONSALTING» МЧЖ | Прошел | 100 | 100 |
| DIZAYN SERVIS PROEKT MCHJ | Прошел | 61.9195 | 61.9195 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 166040 от 26.10.2022 года на приобретение Жалакудук туманидаги 13-ДМТТ ни жорий таъмирлаш ишлари определила победителем:

«NORMA QURILISH KONSALTING» МЧЖ
305637531

и резервный исполнитель: "BINOKOR LOYIHA" хусусий корхонаси (302641854)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | Mamasidikov Jaxongir Valievich | Согласен | |
| **Член комиссии** | KAYUMOVA ODINAXON DILMUROD QIZI | Согласен | |
| **Член комиссии** | ALIMOVA NARGIZA SHUKURJONOVNA | Согласен | |
| **Член комиссии** | MIRZAKOMOLOV MIRZAABDULLA NOSIRULLAYEVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

«ТАСДИКЛАЙМАН»

Жалакудук туман мактабгача таълим

бўлимни мудири ________ М.Ис[illegible]

Жалақудуқ тумани Мактабгача таълим бўлими

# Т Е Х Н И К Т О П Ш И Р И Қ

| № | Асосий маълумотлар | Бажарувчи |
|---|---|---|
| 1 | Таъмирланадиган объект | Жалакудук туман мактабгача таьлим бўлимига карашли 13-ДМТТ мактабгача таьлим ташкилотига жорий таьмирлаш ишлари лойиха смета хужжатларини таййорлаш |
| 2 | Буюртмачи | Жалакудук туман мактабгача таьлим бўлими |
| 3 | Буюртма учун таьмирлаш | Жалакудук туман мактабгача таьлим бўлимига карашли 13-ДМТТ мактабгача таьлим ташкилотига жорий таьмирлаш ишлари лойиха смета хужжатларини таййорлаш |
| 4 | Жойлашган ўрни | Жалакудук туман Тошховуз МФЙ |
| 5 | Катнашувчилар учун талаблар | Жалакудук туман мактабгача таьлим бўлимига карашли 13-ДМТТ мактабгача таьлим ташкилотига жорий таьмирлаш ишлари лойиха смета хужжатларини таййорлаш |
| 6 | Тижорат таклифларини такдим этиш шартлари | Электрон танлов https:/etender.uzex.uz оркали танлов хужжатлари |
| 7 | Бажарилган ишлар хисоб китоби | 16.500000 |
| 8 | Ишни бажариш муддати | 10 кун |
| 9 | Техника хавфсизлиги бўйича талаблар | Иш бажариш жараёнида техника хавфсизлик коидаларига тўла риоя килиш шарт |
| 10 | Молиялаштириш манбаи | Опен бюджет |

МТЭ бўлим бошлиғи: А.Содиков

"ТАСДИҚЛАЙМАН"

Жалақудуқ туман Мактабгача таълими

бўлими мудири

_________________ М.Исмоилова

# ЖАЛАҚУДУҚ ТУМАН МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМИ БЎЛИМИГА КАРАШЛИ 13-ДМТТ БИНОСИНИ ЖОРИЙ ТАЪМИРЛАШ ИШЛАРИ ЛОЙИХА СМЕТА ХУЖЖАТЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ УЧУН

# ТАНЛОВ ХУЖЖАТЛАРИ

Жалақудуқ туман - 2022 йил

Танлов хужжатларининг мазмуни:

1. Танлов иштирокчилари учун йўрикнома

П. Техник кисм

III. Нархлар кисми

## ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИСИ УЧУН ЙУРИКНОМА 1.ТАНЛОВ ПРЕДМЕТИ ВА ТАХМИНИЙ ҚИЙМАИ

1.Танлов предмети: Жалақудуқ туман Мактабгача Таълими бўлимига карашли 13-ДМТТ биносинида жорий таьмирлаш ишларига лойиха хужжатларини тайёрлаш .

1.2.Танловнинг юкори киймати— 25 000 000 (Йигирма беш миллон) сўм. Ушбу кийматдан ортик кийматдаги таклифлар кабул килинмайди ва кўриб чикилмайди.

1.3.Махсулот бўйича Техник топширик танлов хужжатларининг техник кисмида илова килинган.

Ушбу танлов якунлари бўйича ғолиб чиккан бажарувчи такикшот билан шартнома тузилади.

1.4.Ишларни бажариш муддати: ғолиб бўлган катнашчи билан шартнома имзоланган кундан бошлаб тузилган нуксон далолатномасига асосан белгиланган график бўйича.

1 .5.Ишларни бошлаш муддати — аванс маблағи Ўтказилган кундан бошлаб хисобланади.

## 2.ТАНЛОВ ТАШКИЛОТЧИЛАРИ

2.1. Жалақудуқ туман Мактабгача Таълими Бўлими (бундан кейин-"Буюртмачи" деб аталади) — танлов ташкилотчиси хисобланади.

"Буюртмачи" манзили. Жалақудуқ туман Тошховуз МФЙ

2.2.Танлов "Буюртмачи" томонидан танловлар ўтказиш бўйича тузилган Харид комиссияси томонидан ўтказилади.

2.3.Танлов Жалақудуқ туман Мактабгача Таълими Бўлими "Буюртмачи" томонидан тузилган Харид комиссияси томонидан конунда белгиланган тартибда, белгиланган муддатларда ўтказилади.

## 3.ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИЛАРИ

3.1.Танлов мулкчилик шаклидан катьий назар шу мазмунда иш ва хизматлар кўрсатишга ихтисослашган, камида 3 йил тажрибага эга бўлган барча юридик макомга эга бўлган ташкилотлар иштирок этиши мумкин.

3.2.Танловда иштирок этиши учун талабгорларга куйидаги малакавий талаблар кўйилади:
танлов предмети ишлар(хизматлар)ни бажариш учун зарур бўлган мехнат ресурслари ва мутахассисларнинг мавжудлиги; объектнинг мураккаблик даражасига караб, "лицензия" ва " гувохнома' .684-Конун 13-моддатига риоя этилиши шарт

- Моддий-техника базаси хамда ташкилотнинг оргтехника рўйхати ускуналар
- Бахтсиз ходисалар бўлган вазиятларда ишчи ходимларнинг хаёти суғурталанганилиги
- Техника хафсизлиги коидаларига риоя килиш талаблари хамда йўрикномалари
- Ишчи ходимларнинг диплом нусхалари, мехнат дафтарчалари ёки meћnat.uz сайти оркали рўйхатдан ўтганлиги тўғрисидаги хужжат
- Бажарилган ишларга бериладиган кафолат муддати
- Шу сохада олдин килинган ишлари бўйича буюртмачилар берган тавсифномалари

3.3. Агар танлов предмети бўлган ишлар (хизматлар) бажариш билан боғлик фаолият конунчиликка биноан лицензиялаштириши зарур бўлса, танловда иштирок этиш учун белгиланган тартибга мувофик тегишли лицензияга эга бўлган талабгорларга рухсат этилади.
3.4.Куйидаги талабгорларга танлов жараёнларида иштирок этишга рухсат берилмайди:
кайта ташкил этилиш (ажралиши, кўшилиш), тугатиш ёки банкротлик арафасида турганлар; молмулки мусодара килинганлар, хамда муассислик келишув, молиявий иштирок, холдинг ва бошка шаклда ифодаланган бевосита ташкилий-хукукий ёки бир бирига молиявий карамлиги мавжудлар.

## 4.ТАНЛОВДА ИШТИРОК ЭТИШ УЧУН ТАКЛИФЛАРНИ ТАКДИМ ЭТИШ

4.1.Танлов учун таклифлар ва унга тегишли иловалар ва хужжатлар, маълумотлар "Буюртмачи" ва "Иштирокчи" ихтиёрига кўра ўзбек ва рус тилида такдим этилиши мумкин.
4.2.Танлов хужжатларида куйидагилар такдим этилиши лозим:
Техник кисм, "Буюртмачи" томонидан куйилган техник талабларни ва бажариладиганиш ва хизматлар кўрсатилиши керак;
Нархлар кисми, Танлов шартларида белгиланган нархлар доирасида, хизматларни бажариш муддатлари, тўловлар тартиби ва якуний тўловлар ва бошка боғлик кўрсаткичлар кўрсатилан бўлиши керак.
Танлов иштирокчилари хар бир таклифларни яхлит холда тикилган, номерланган ваколатли шахс имзоси ва мухри билан тасдикланган холда ёки хар бир вароғини мухрлаб тасдиклаган холда такдим этишлари лозим.
4. 3.Куйидаги хужжатлар тўлик бўлиши талаб этилади:
Техник ва нархлар бўйича куйидаги таклифлар:
Техник хужжатлар рўйхати (брошюралар, техник паспортлар ёки ўхшаш хужжатлар рўйхати илова килинади);
Нархлар таклифи ва нархлар бўйича жадвал тўлдирилиши ва илова килиниши лозим.
4.4. Танлов иштирокчиси:
факат битги таклиф бериши мумкин; такдим этилаётган хужжатларнинг хакикийлиги ва маълумотларнинг хакконийлигига тўлик жавобгар бўлади; таклифлар бериш муддати тугагунга кадар ўз таклифларини кайтариб олиш ёки ўзгартириш киритиш хукукига эга.

## 5.ТАКЛИФЛАРНИ ТАКДИМ ЭТИШ МУДДАТИНИ УЗАЙТИРИШ

5.1 .Харид комиссияси танлов учун таклифларни кабул килиш муддатини барча иштирокчилар учун таълукли холда эълон килинган муддатдан яна 5 календар кунга узайтириши мумкин.
5.2.Таклифлар муддатини узайтирилиши факат харид комиссияси йиғилиши карори асосида амалга оширилади.
5.3.Танлов муддатини узайтириш туғрисидаги карор махсус ахборот порталида жойлаштирилиши лозим.

## 6.ТОМОНЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

6.1.Давлат харидлари тугрисидаги Конун талабларини бузган шахслар конунчиликда белгиланган тартибда жавобгар бўладилар.

6.2.Харид комиссияси давлат харидлари бўйича конунчиликда белгиланган тартибда голиб иштирокчиларни аниклаш ва асосланган карор кабул килиш бўйича мажбурдир.

6.3.Танлов иштирокчиси такдим этилган барча хужжатларни хакикийлиги ва тўгрилигига жавобгардир. Голиб иштирочи деб топилгандан сунг конунчиликда белгиланган тартибда давлат буюртмачиси билан Ўрнатилган тартибда ва муддатларда шартнома тузишга мажбурдир.

## 7.БОШКА ШАРТЛАР

7.1 .Давлат буюртмачиси танлов хужжатларига Ўзгартиришлар киритиш тўгрисида танловда иштирок этиш учун таклифлар бериш муддати тугайдиган санадан камида уч кун олдин карор кабул қилишгаа хакли. Товарни (ишни, хизматни) Узгартиришга йўл кўйилмайди. Бунда ушбу танловда таклифлар бериш тугайдиган муддат танлов хужжатларига Узгартиришлар киритилган санадан эътиборан камида ун кунга узайтиририлиши керак. Шу билан бир вактда, агар эълонда кўрсатилаган ахборот Узгартирилган бўлса, танлов Утказиш тўгрисидаги эълонга Узгартириш киритилади.

7.2. Танлов иштирокчиси танлов хужжатлари коидаларини танлов ўтказиш учун эълонда белгиланган шаклда тушунтириш талаби билан давлат буюртмачисига сўров юборишга хами. сўров келиб тушган санадан эътиборан икки иш куни ичида давлат буюртмачиси, агар мазкур сўров давлат буюртмачисига таклифлар бериш муддати тугайдиган санадан камида икки кун олдин келиб тушган бўлса, ушбу сўровга белгиланган шаклда жавоб юбориши шарт. Танлов хужжатларининг коидаларига доир тушунтиришлар уларнинг мазмун-мохиятини Узгартирмаслиги керак.

7. 3.Таклифларни кўриб чикиш ва бахолаш баённомаси харид комиссиясининг аъзолари томонидан имзоланади хамда ундан олинган кўчирма у имзолаган кундан эътиборан уч иш куни ичида махсус ахборот порталида эълон қилинади.

7.4. Танловнинг исталган иштирокчиси такливларни кўриб чикиш ва бахолаш баённомаси эълон килинганидан сўнг давлат буюртмачисига танлов натижаларига доир тушунтиришларни татим этиш тўгрисида сўров юборишга хакли. Давлат буюртмачиси бундай сўров келиб тушган санадан эътиборан уч иш куни ичида танлов иштирокчисига тегишли тушунтиришларни такдим этиши шарт.

7.5.Танлов натижалари бўйича шартнома танлов хужжатларида ва ўзи билан шартнома тузилаётган танлов иштирокчиси томонидан берилган таклифда кўрсатилган шартлар асосида тузилади.